

MAJBURIY FANLAR

ONA TILI

1. Qaysi javobda «kirmoq» soʻzi «boshlanmoq» maʼnosida qoʻllangan?

- A) Siz talabgorlar roʻyxatiga kirdingiz.
 B) May juda tez oʻtdi, iyun ham kirdi.
 C) Akam imtihondan oʻtib, universitetga kirdi.
 D) Bu odatlar oʻzga millatlardan kirgan.

2. Qaysi gapda kelishik qoʻshimchasini qoʻllash bilan bogʻlik uslubiy xatolik mavjud?

- A) Sohibqironni bunyodkorlik sohasidagi tarixiy xizmatlari beqiyosdir.
 B) Oʻzining ovozi oʻziga uzoqdan eshitilganday boʻldi.
 C) Ikromjon xotinini biz bilan qoldirdi-da, oʻzi idora tarafga ketdi.
 D) Oʻzingni er bilsang, oʻzgani sher bil.

3. Qaysi javobda tinish belgisi bilan bogʻlik xatolik mavjud?

- A) Yo alhazar! Salomni ham ravo koʻrmasi-ya!
 B) Qadimgilar demish «Oʻz uyim oʻlan toʻshagim».
 C) Moviy osmon, goʻzal oʻrmon – hammasi koʻz oʻngimda gavdalanadi.
 D) – Nima qilay?
 – Oʻqi!

4. Qaysi soʻzlar ravish turkumiga mansub?

- A) dastlabki, sezgi B) ataylab, noiloj
 C) allaqaysi, beodob D) kechqurun, kuz

5. Qaysi javobdagi soʻzlar ajratib yozilishi kerak?

- A) bir // oz, bir // muncha
 B) hamma // yoq, bir // pasda
 C) dev // sifat, sovuq // mijoz
 D) tim // qora, har // kuni

6. Qaysi javobda oʻzaro zid maʼnoli soʻzlar juftligi berilgan?

- A) ozgʻin – semiz
 B) quvonch – sevinch
 C) qurumsoq – ziqna
 D) epchil – abjir

7. Qaysi gapda bir soʻzi «shunday», «shunaqa» soʻzlari oʻrnida kelib, boʻrttirib ifodalash maqsadida qoʻllangan?

A) Yigit siltandi-yu, bir qoʻli bogʻlangan arqonni yechib yubordi.

B) Anvar bir nimaga qoqilib ketdi-yu, darrov oʻzini oʻnglab oldi.

C) Bir yugurayki, hammaning ogʻzi ochilib qolsin.

D) Bildirilgan taklifga hamma rozi boʻldi, bir Anvar rozi boʻlmadi.

8. Kesim ajratib koʻrsatilgan gapni toping.

A) Xonaga shoshib kirgan yigit biroz oʻngʻaysiz ahvolga tushdi.

B) Yasanib olgan Naziraxon koʻchaga chiqib keldi.

C) U oʻz ishini juda pishiq bajargan, xatosini topolmaysiz.

D) Oʻylamay qilingan ish boshga keltirar tashvish.

9. Qaysi gapda qoʻshimcha qoʻshilishi bilan bogʻliq imloviy xatolik mavjud?

A) Erta ekkan erta oʻrar, shuning uchun vaqtliroq boshlanglar.

B) Ushbu goʻzallikka mahliyo boʻlib qolgan edik.

C) Men sirtqi boʻlimda oʻqishga qaror qildim.

D) U otdan tushsa ham, egardan tushmaydiganlar sirasiga mansub edi.

10. Imloviy jihatdan xato yozilgan soʻzlarni toping.

- A) soxa, mahsus B) muattar, musaffo
 C) maʼraka, hayo D) xayol, huquq

MATEMATIKA


11. Hisoblang: $(6\frac{5}{9} - 3\frac{1}{4}) \cdot 2\frac{2}{17}$

- A) 6 B) 8
 C) 7 D) 9

12. Quyidagilardan qaysi biri -1 ga teng?

- A) $((-1)^2)^3$ B) $(-(-1)^2)^3$
 C) $((-1)^3)^2$ D) $(-(-1)^3)^3$

13. Quyida berilgan son oʻqidan foydalanib $D - A$ ning qiymatini toping.




- A) 2,5 B) 3
C) 3,5 D) 4

14. Tenglamani yeching:

$$0,9(4x - 2) = 0,5(3x - 4) + 4,4$$


- A) 1,2 B) 20
C) -3 D) 2

15. Agar $AB = 45 \text{ km}$ bo'lsa, tezligi 5 km/soat bo'lgan yo'lovchi DB masofani qancha vaqtda bosib o'tadi?



- A) 4 soat B) 6 soat
C) 3 soat D) 9 soat

16. D bo'lak aylananing qanday qismini tashkil etadi?




- A) $\frac{19}{24}$ B) $\frac{17}{25}$
C) $\frac{12}{19}$ D) $\frac{5}{24}$

17. Oralaridagi masofa 108 km bo'lgan ikki velosipedchi bir vaqtda bir-biriga qarab yo'lga chiqdi va 3 soatdan so'ng uchrashdi. Birinchi velosipedchining tezligi ikkinchisidan 4 km/soat ortiq bo'lsa, ikkinchi velosipedchining tezligini toping.


- A) 12 B) 18
C) 20 D) 16

18. Quyida berilgan to'g'ri to'rtburchakning perimetri qanday ifoda bilan aniqlanadi?




- A) $4x + 10$ B) $8x + 5$
C) $8x + 10$ D) $6x + 15$

19. Quyidagi shaklning perimetrini aniqlang:



- A) $16x$ B) $20x$
C) $24x$ D) $30x$

20. COB burchak necha gradus ga teng?



- A) 38° B) 48°
C) 52° D) 62°

O'ZBEKISTON TARIXI

21. O'zbekiston SSSRning birinchi poytaxti qaysi shahar bo'lgan?

- A) Samarqand B) Toshkent
C) Buxoro D) Qo'qon

22. Buxoroda 1837-yilda muntazam qo'shin tuzgan Buxoro amiri kim edi?

- A) Amir Narisullo B) Amir Muzaffar

C) Amir Haydar D) Amir Abdulahad

23. O'zbekiston tarixidan Makedo-niyalik Aleksandr bosqiniga qarshi xalq qo'zg'oloni rahbari bo'lgan shaxsni aniqlang?

- A) Muqanna B) Mahmud Torobiy
C) Shiroq D) Spitamen

24. O'zbekiston hududidagi Xolchayon, Ayritom, Qoratepa, Dalvarzintepa yodgorliklari qaysi

podsholik davriga borib taqaladi?

- A) Qadimgi Baqtriya
B) Kushon podsholigi
C) Somoniylar davlati
D) Eftaliylar davlati

25. Al-Farg'oniyni qaysi asari XII asrdayoq lotin va ibroniy tiliga tarjima qilingan?

- A) "Kitob surat ul-arz"
B) "Al-jabr val-muqobala"
C) "Hind hisobi haqida"
D) "Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum"

26. O'zbekiston Respublikasida ijro etuvchi hokimiyat hisoblanadigan organni toping.

- A) Vazirlar Mahkamasi
B) Oliy Majlis
C) Oliy Sud

D) Konstitutsiyaviy sud

27. Buxoro amirligining birinchi hukmdorini aniqlang?

- A) Amir Nasrullo
B) Amir Olimxon
C) Amir Muhammad Rahim
D) Amir Haydar

28. 1512-1770-yillarda Xiva xonligini boshqargan sulolani belgilang.

- A) ashtarxoniylar B) mang'itlar
C) shayboniylar D) qo'ng'irotlar

29. 1914-yillarda Toshkent shahrida tashkil etilgan va keyinchalik mintaqada teatr sohasida katta ta'sirga ega bo'lgan "Turon" teatr truppassi kim tomonidan tuzilgan edi?

- A) Hamza Hakimzoda Niyoziy
B) Mahmudxo'ja Behbudiy
C) Mannon Uyg'ur
D) Abdulla Avloniy

30. Arab xalifaligida 661-750-yillar davomida quyidagi sulolalardan qaysi biri hukmronlik qilgan?

- A) abbosiylar B) afrig'iylar
C) somoniylar D) ummaviylar